

Uzbekistan Airways yangi ketring konsepsiyasini taqdim etadi

2022 21 Sentabr

2022-yil 20-sentabrdan boshlab, Uzbekistan Airways Parij, Frankfurt, London va Milan yo'nalishidagi aviaqatnovlarda bort taomlarini o'zgartirishni boshlamoqda va ushbu aviaqatnovlarda yo'lovchilar aviakompaniyaning yangi ketring konsepsiyasini baholashlari mumkin.

Bort taomlari yangi konsepsiyasining asosiy farqi shundaki, Uzbekistan Airways nafaqat menuy va xizmatni o'zgartiradi, balki unga xalqaro standartlarni inobatga olgan holda tayyorlangan zamonaviy taomlar qo'shiladi. Asosiy maqsad – bortda yo'lovchilarni yangi taom kontsepsiysi bilan hayratda qoldirish va xursand qilishdir.

Eslatib o'tamiz, Seul yo'nalishi bo'yicha shu yilning avgust oyida bort taomlari konsepsiysi yangilangan.

Uzbekistan Airways yaqin kunlarda Ketring yangi taomnomasini taqdimotini OAV vakillari bilan o'tkazishni rejalashtirgan.